

O‘ZBEK TILIDA FAOL VA NOFAOL SO‘ZLARINING QO‘LLANILISH METODOLOGIYASI

Abbasova Nargiza Kobilovna

FarDU, ingliz tili kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD

Maxmudova Fotima Zufar qizi

FarDU, lingvistika yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

O‘zbek tilidagi faol va nafaol lug‘at tarkibini tashkil qiluvchi so‘zlarning uslubiy qo‘llanilishini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish, mazkur uslublarning qo‘llanilish darajasi va ma’no qirralarini tahlil qilish ushbu maqolaning maqsadi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, faol so‘zlar, nafaol so‘zlar, tilshunoslik, morfologiya.

ABSTRACT

The purpose of this article is to study the methodical use of the words that make up the active and inactive vocabulary of the Uzbek language, their specific characteristics, the level of use of these methods and the meaning aspects of the article.

Key words: Uzbek language, active words, passive words, linguistics, morphology.

KIRISH

Alohida ta’kidlash kerakki, shu kungacha faol va nafaol lug‘at tarkibiga kiruvchi leksik qatlamlar, jumladan, shevaga xos so‘zlar, atamalar, yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, eskirgan qatlam, xususan, ibora va maqollarning uslubiy xususiyatlari hozirgi o‘zbek adabiy tili taqozo qilayotgan sistema yo‘nalishida o‘rganilmagan. Ayniqsa, ibora va maqollarning turli xil nutq uslublarda qo‘llanilishidagi o‘ziga xosliklarni o‘rganish bugungi kun talabidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligi keyingi yillarda qator yutuqlarga erishdi. Mazkur yutuqlardan eng muhimi o‘zbek sistem tilshunosligining shakllanishi va jadal sur’atda ravnaq topayotganligidir. An’anaviy tilshunoslikdan farqli o‘laroq, sistem tilshunoslikda til birliklari va nutq birliklari o‘zaro farqlanadi. Ushbu tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, badiiy asarda qanday til birliklarini qo‘llash emas, bu birliklarni nima maqsadda qo‘llash va undan qanday nutq birliklari hosil qilish masalasi muhimroqdir. Bunday xususiyatlar muallifning badiiy nutq mahoratini belgilashda mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kungacha o'zbek tilshunosligida faol lug'at tarkibi keng o'rganilgan. Biroq tadqiqotlarning aksariyatida, jumladan, B.Umurov, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiev, B.Yo'ldoshev va boshqa tadqiqot ob'ektimizga daxldor ilmiy tadqiqotlarda masala an'anaviy tilshunoslik aspektida amalga oshirilgan [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Nutqning aniq va ravshan bo'lishi, avvalo, so'zdan to'g'ri foydalanishga bog'liq. So'zni o'z o'rnida to'g'ri ishlata bilish uchun uning leksik ma'nosini anglash zarur.

So'zning leksik ma'nosini tushunmaslik uni xato qo'llashga olib keladi. Masalan: *O'n kun deganda yer haydash va ariq chopish tugallandi*. Bu gapda *chopish* so'zi xato qo'llangan. Odatda, ariq chopilmaydi, qaziladi. *Sekin-asta deb, xotirjam yuraversangiz, g'alvir suvdan ko'tarilganda, brigada a'zolari yuzingizga qorakuya chaplaydi*. Bu misolda *chaplamoq* fe'lining leksik ma'nosidan to'g'ri foydalanilmagan. Odatda, *qorakuya surtiladi, loy chaplanadi*.

Buyuk so'z san'atkorlari so'z xususida shunday deyishgan; «*So'z barcha faktlar, barcha fikrlar libosidir*» yoki «*Agarda biror narsani aniq ifodalay olmas ekanmiz, bunda tilimizdan emas, balki uquvsiz mahoratimizdan gina qilishimiz kerak*» va hokazo [2].

So'z san'atkorlari tilga alohida e'tibor berib keldilar, uslub va ifodaning sodda bo'lishini, nutqda fikriy mujmallikka yo'l qo'ymaslikni targ'ib etdilar. Ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy tilga e'tibor – elga e'tibor, deb tilning ahamiyatini alohida ta'kidladi. Bobur esa o'g'li Xumoyunga yozgan maktublaridan birida uning (o'g'lining) fikrning ravonligi va aniqligiga rioya qilmaganligidan tashvishlanib, «*xatingni xud tashvish bilan o'qisa bo'ladi... Munda beri betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bit, ham senga tashvish ozroq bo'lur, ham o'qig'uvchiga*», -degan edi.

Har bir kishi ona tilini mukammal egallash, uning nazariy va amaliy asoslaridan xabardor bo'lishi kerak. Chunonchi, gap tarkibidagi so'zning semantikasi - ma'no tomoni, qo'shimcha emotsional - ekspressiv ottenkasi va uslubiy belgilari, fikrning so'z vositasi bilan mantiqiy jihatdan to'g'ri ifoda qilish usullari va shunga o'xshash masalalarni puxta bilishi zarur.

«Ona tilini o'rganish, - deydi buyuk so'z san'atkorlaridan biri, - nihoyatda ulug' bir ish. Inson tafakkurining erishgan eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari va g'oyat otashin hislar, agar ular so'z vositasi bilan aniq va ravshan ifoda qilinmasa, odamlar uchun noma'lumligicha qolaveradi. Til fikrni ifodalash qurolidir. Binobarin, agar fikr nutq vositasi bilan bayon qilingan bo'lsa, agar u til vositasi bilan ruyobga chiqqan bo'lsa, agar u, faylasuflar tili bilan aytganda, - boshqalarga bevosita borib etsa, aniqlashtirilsagina fikr bo'la oladi».

Leksika muttasil o'sish va rivojlanishda bo'lib, unda doim yangi so'zlar paydo bo'ladi, tildagi mavjud so'zlarning ba'zilar asta-sekin eskirib boradi. Eskilik ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar tilda birmuncha vaqtga qadar ishlatiladi. Shunga ko'ra umumxalq tili lug'at boyligini ikki katta guruhga ajratish mumkin: faol so'zlar va nofaol so'zlar [3].

Faol so'zlar guruhiga ma'nosi shu tilda gaplashuvi barcha kishilarga tushunarli va kundalik turmushda qo'llanishi odat bo'lib qolgan so'zlar kiradi. Bu guruhdagi so'zlar eskilik bo'yog'iga ega bo'lmaydi.

Nofaol so'zlar guruhiga eskilik bo'yog'i aniq bilinib turadigan va ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan so'zlar kiradi. Bunday so'zlar kundalik aloqada kamroq ishlatiladi.

Nofaol so'zlar ikki guruhga bo'linadi: eskirib qolgan so'zlar (arxaizmlar, istorizmlar) va yangi so'zlar (neologizmlar).

Arxaizm va istorizmlarning uslubiy vazifasi. Tilning hozirgi davri uchun eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar arxaizm yoki arxaik so'zlar deb yuritiladi¹. So'z ma'nosining eskirishi va turli sabalarga ko'ra uning o'rnini boshqa so'z olishi natijasida arxaizm paydo bo'ladi. Masalan: *avaxta (qamoqxona)*, *musofirxona (mehmonxona)* kabilar o'zbek tilida bugungi kun nuqtai nazaridan eskirgan so'zlar bo'lib, ularning o'rnini yangi so'zlar egallagan.

Arxaiklashish hodisasining ko'rinishlari [4]:

a) so'z butun holda, yaxlitligicha arxaiklashadi. Bu leksik arxaizm deyiladi: *gardun (osmon)*, *davot (siyohdon)*; b) so'zning ma'nolaridan biri arxaiklashadi. Bu semantik arxaizm deyiladi. Masalan: *nishon* so'zining «orden» ma'nosi arxaiklashgan, u belgi, alomat, iz, asar ma'nolarida keng qo'llaniladi (*nishon qo'ymoq, nishonga olmoq, undan hech nishon qolmadi*). Shuningdek, *g'animat* so'zining «qo'lga tushirilgan narsa, o'lja» ma'nolari arxaiklashgan, u «qulay, tuzuk, yaxshi» kabi ma'nolarida faol ishlatilgan (*g'animat vaqt*). Yana: *daha* so'zining «shaharlarning bir qismi, tumani» ma'nosi (*daha boshlig'i*) arxaiklashgan, bu so'z «ipak qurti yoshi» ma'nosida kasb-hunar leksikasida qo'llaniladi (*qurtlar so'nggi dahaga kirdi*).

Eskirib qolgan so'zlarga istorizmlar ham kiradi. Hozirgi hayotda uchramaydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi so'zlar istorizmlar deyiladi. Masalan: *omoch, bakovul, yasovul, qozi, qozixona, bek, vasiqa, gumashta, meshkop, jig'ador* kabi [5].

Istorizmlar – o'zi anglatgan narsa va hodisalarning yagona atamasi. SHuning uchun hozirgi tilda o'rnini bosa oluvchi sinonimlari bo'lmaydi. Masalan: Hamzaning «Bitsin endi eski turmush, ul kulohu jandalar» misrasidagi *kuloh, janda* so'zlari kabi.

Istorizmlar shu xususiyati bilan arxaizmlardan keskin farqlanadi (eskirgan soʻzlar iborasi bularning ikkalasi uchun umumiy nomdir).

XULOSA VA MUNOZARA

Adabiy til leksikasidagi lugʻat birliklari faol va nafaol qatlamlarga ajraladi. Faol qatlamga til jamoasi aʼzolari yoki ularning bir guruhi nutqida ishlatilaverib, odat tusiga kirib qolgan birliklar kiradi. Nafaol qatlamga mazkur til jamoasi lugʻat tarkibidan chiqib ketgan (eskirgan soʻzlar) va tilga yaqinda kirib, hali koʻp qoʻllanuvchi birliklarga aylanib ulgurmagan birliklar (neologizmlar) kiradi. Bu asosan tarixiy mavzularda yozilgan asarlar tilini oʻrganishda qoʻllaniladi.

Lugʻat birliklari ijtimoiy-dialektal tomondan ham bir-biridan farqlanadi. Bu nuqtai nazardan lugʻat birliklari umumxalq birliklari va professional hamda dialektal birliklarga guruhlanadi. Bu tamoyil yozuvchining personajlar nutqini individuallashtirish mahorati, adabiy tilni boyitishga qoʻshgan hissasi kabi masalalarni oʻrganishda qoʻllanadi.

REFERENCES

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi, adabiy norma tiplari. 2-qism, Toshkent, 2018. -134 b.
2. Yoʻldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. Samarqand, 2012. –82 b.
3. Erkin, E., Jamila, S., & Dilmurod, M. (2022). SCHIZOPHYLLUM COMMUNASI FR. ON THE TERRITORY OF UZBEKISTAN ISOLATION OF PURE CULTURE OF MEDICINAL FUNGUS. *Universum: химия и биология*, (6-4 (96)), 4-7.
4. Sherkulova, J. P., Mustafaev, I. M., Sharopova, M. A., Chariev, R. R., & Eshonkulov, E. Y. (2020). Micromycetes Of Class Leotiomycetes Distributed On Ornamental Trees Introduced In The Conditions Of The Southern Part Of Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
5. Erkin, E., Dilmurod, M., & Navbakhor, K. (2022). MEDICINAL SCHIZOPHYLLUM COMMUNA FR. THE FIRST REPORT OF THE FUNGUS WHICH IS DISTRIBUTED IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN. *Universum: химия и биология*, (11-3 (101)), 13-16.
6. Sh, N. G., Salimova, D. E., & Alisherovich, B. A. (2022). RELATIONSHIP BETWEEN DIABETIC NEPHROPATHY AND CARDIAC DISORDERS IN PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES. *PEDAGOG*, 1(2), 337-340.
7. Muratova, G. R., & Komilova, M. (2022). PARALIMPIYA SPORTI IMKONIYATLARI CHEKLANGAN SHAHSLARNI IJTIMOYILASHTIRISH USULI SIFATIDA. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 697-701.

8. Muratova, G. R. (2021). To the problems of self-assessment of children with disabilities through adaptive physical education and sport. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 455-458.
9. Муратова, Г. Р. (2020). ВОПРОСЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В СФЕРЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI).
10. Madatovna, K. M. (2022, December). TEACHING LISTENING IN ENGLISH LESSONS IN HIGHER EDUCATION. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 9, pp. 53-57).
11. Madatovna, K. M. (2022). APPROACHES AND METHODS OF TEACHING ENGLISH: ORAL APPROACH, SITUATIONAL LANGUAGE TEACHING AND AUDIO-SPEECH METHOD. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 91-94.
12. Madatovna, K. M. (2022). English phraseology and its features. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(3), 1-5.
13. Madatovna, H. M. (2021). Features of teaching a foreign language to children of primary preschool age. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(11), 29-37.
14. Хотамова, М. М. (2021, November). Важность Фонетики И Фонологии В Обучении Произношению На Уроках Английского Языка. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 114-119).
15. Kadirovna, A. D. (2021). Psychological and pedagogical aspects of teaching students. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1204-1207.
16. Kadirovna, A. D. (2021). Vocabulary problem in non-philological institutions. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 160-162.
17. Kadirovna, A. D. (2021, February). LEARNING STRATEGIES FOR MODERN PEDAGOGY. In *E-Conference Globe* (pp. 126-129).
18. Kadirovna, A. D. (2021). The role of modern pedagogical technologies in foreign language teaching. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 383-386.
19. Kadirovna, A. D. (2022). ACTIVITY OF STUDENTS' COGNITIVE ACTIVITY IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE AND LITERATURE IS AN IMPORTANT FACTOR OF EDUCATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 799-802.